



MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING BO'LAJAK TARBIYACHILARINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Ergasheva B. Z.

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: kompetentsiya, o'rganish, intellektual, strategiya, tizim, ekspert, kontekst.

Ключевые слова: компетентность, обучение, интеллектуальная, стратегия, система, эксперт, контекст.

Key words: competence, training, intellectual, strategy, system, expert, context.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga yo'naltirish kasbiy kompetentligining muxim tarkibiy qismi xisoblanib, innovatsiyalarga nisbatan ochiqlik, analitik tafakkur, ijodkorlik va tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ega bo'lish xamda kasbiy faoliyatda ulardan samarali foydalanishga tayyorgarlik darajasi, shuningdek shaxsiy sifatleri yigindisida ko'rishimiz mumkin. Tadqiqotchilik kompetentsiyalari esa o'z navbatida fanning zamonaviy tendentsiyalari va ilgor pedagogik tajribalarni o'zlashtirish negizida mutaxassisning xar tomonlama kasbiy rivojlanishi, o'z imkoniyatlarini to'lik namoyon etishiga xizmat qiladi.

Shunday ekan, bugungi ta'limni modernizatsiyalash sharoitida oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarining kompetentsiyasini rivojlantirish va bu jarayonda quydagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- pedagog kadrlarda kasbiy faoliyat va sohaga tegishli yangi kompetentsiyalar va ko'nikmalarni faol o'zlashtirish motivatsiyasini rivojlantirish;
- ta'lim jarayonida sifatga urg'u berish orqali pedagogik jarayonga ijodiy yondashuv va novatorlikni rivojlantirish;
- hamkorlikdagi ta'lim, loyihaviy va muammoli ta'lim elementlarini o'z ichiga olgan «tadqiqotlar orqali ta'lim» kontseptsiyasini amaliyotga keng joriy etish;



- ijodiy seminarlar, kastinglar, master klasslar tashkillashtirish orqali pedagoglar va talabalarni hamkorlikdagi tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish va pedagoglarda tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish va boshqarish sohasidagi zaruriy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish;
- pedagoglarning innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus kurslarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim yo'nalishlardan sanaladi.

Tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi masalalari Y.I.Artamonova, Y.V.Andriyenko, V.I.Baydenko, Y.V.Berejnova, A.A.Verbiskiy, I.A.Zimnyaya V.V.Krayevskiy, N.V.Kuzmina, V.V.Serikov, V.A.Slastenin, Yu.G.Tatur, A.V.Xutorskiy, Y.N.Shiyanov kabi rus olimlari tomonidan keng miqyosda o'rganilgan. O'qituvchilarni tayyorlash va kasbning ijtimoiy mohiyatining turli jihatlarini A.V.Mudrik, F.R.Yuzlikayev, E.R.Yuzlikayeva, N.M.Urinovalarning izlanishlarida o'z aksini topgan.

Kasbiy pedagogik faoliyatning aksiologik jihatlarini V.A.Slastyonin, E.N.Shiyanov, O.Musurmonova, Sh.Mardonovlarning asarlarida yoritilgan Rahimov Z.T, R.X.Jo'rayev, O.Musurmonova, S.Nishonova, U.I.Mahkamov, M.Inomova, M.Quronov, S.Ochilov, N.O.Ortiqov, Sh.T.Xalilova, N.M.Egamberdiyeva, Sh.S.Shodmonova, Q.Quronov, Sh.Olimov, G.Maxmutova, kabi olimlar ta'limning turli bosqichlarida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslarini ishlab chiqqanlar. Ushbu uslubiy tavsiyada bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilari uchun nazriy ma'lumot va qiziqarli treninglar keltirilgan.

Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchining bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga katta baho berib, o'qituvchilik «yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, pedagog o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Ya.A.Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlarekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlarining namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligiga urg'u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevib o'quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi va diniy e'tiqod K.D.Ushinskiy o'qituvchi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi fikrni ilgari suradi. Mazkur g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim « o'qituvchilarni tayyorlovchi tizimni ilk bor asoslaydi.

Bu manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim pedagogik asoslar mavjud.

Umuman bizning yondashuvimizga ko'ra, kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasining pedagogik muommasida quyidagilar muhim o'rin tutadi:



Kompetensiyaviy yondashuv mazmuni. Mazkur masalada biz quydagilarni asosiy komponentlar hisoblaymiz:

- a) kasbiy bilimdonlik;
- b) amaliy ko'nikmalik;
- c) faoliyatga tayyorgarlik.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarga ana shu komponentlarni shakllantirish bilan ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasiga kompetensiyaviy yondashuv imkoniyatiga ega bo'linadi.

Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muommosi. Ushbu masalada quydagi zaruriyatlar pedagogik muommo hisoblanadi:

- a) bolalarni munosib tarbiyalash zaruriyati;
- b) maktabgacha tarbiya samaradorligiga erishish zaruriyati;
- c) maktabgacha ta'lim tashkilotlarini professional tarbiyachilar bilan ta'minlash zaruriyati.

Bu zaruriyatlar majmui kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogic muommosini tashkil etadi.

Shunday qilib kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogic muommosini belgilashda pedagogic olimlarning tadqiqotlarida bayon qilingan nazariy qarashlar, pedagogic merosda ifodalangan tajribalar va bizning individual tahlilimiz asosida kelingan fikrlarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev raisligida ta'lim sohasidagi muammolar, ularni hal etish va ta'lim sifatini oshirishga bag'ishlangan videoselektordagi so'zlagan nutqlari. 30.10.2020 yil
2. S.B.Qorayev, N.I Tirkashev „Kompetensiyaga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari Academic Research in Educational Sciencye 2022 1072-st
3. Ergasheva, B. (2022). Talabalarining pedagogik modernizatsiya sharoitida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Science and innovation, 1(B7), 401-405.
4. Barno, E. (2023). O'zbekistonda maktabgacha talim muassasalarining zamonaviy tizimi. Research Focus International Scientific Journal, 2(3), 103-105.
5. Ergasheva Ba'rno Ziyavitdin qizi, & Qulbulova Rayhona Anvar qizi. (2023). Mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tizimi . Лучшие интеллектуальные исследования, 10(4), 69-74.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda mamlakatning rivojlanish darajasi, pedagogika o'quv tashkilotlaridagi pedagogik jarayonlar, pedagog kadrlarning salohiyati haqida tushuntirishlar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье раскрыт уровень развития страны в современном обществе, педагогические процессы в педорганизациях, потенциал педагогических кадров.

SUMMARY

This article reveals the level of development of the country in modern society, pedagogical processes in pedagogical organizations, and the potential of teaching staff.